

YAPON TILI O'RGANUVCHILARDA EGANING TUSHIB QOLISH (主語省略) HODISASI VA UNI O'ZLASHTIRISH MUAMMOLARI

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Magistratura bosqichi talabasi
Norboboyev Rahmiddin*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yapon tilini chet tili sifatida o'rganuvchilar tomonidan eganing tushib qolishi (主語省略, *shugo shōryaku*) hodisasini o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Yapon tili *pro-drop* tillar qatoriga kirib, unda ega ko'pincha kontekst orqali aniqlanadi. Biroq o'rganuvchilar ushbu pragmatik xususiyatni yetarlicha o'zlashtira olmasliklari natijasi, egani ortiqcha qo'llashga moyil bo'ladilar. Maqolada ona tili interferensiyasi, grammatikaga yo'naltirilgan ta'lim va pragmatik bilim yetishmasligi asosiy omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari yapon tili o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yapon tili, ega tushib qolishi, *pro-drop*, pragmatika, chet tilini o'rganish

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются проблемы, возникающие у изучающих японский язык как иностранный в процессе усвоения явления опущения подлежащего (主語省略, *shugo shōryaku*). Японский язык относится к числу *pro-drop* языков, в которых подлежащее часто определяется на основе контекста. Однако изучающие иностранный язык не всегда в достаточной степени усваивают данную прагматическую особенность и склонны к избыточному употреблению подлежащего. В статье в качестве основных факторов рассматриваются интерференция родного языка, грамматико-ориентированное обучение и недостаточный уровень прагматических знаний. Результаты исследования служат основой для выработки практических выводов, направленных на совершенствование методики преподавания японского языка.

Ключевые слова: японский язык, опущение подлежащего, *pro-drop*, прагматика, изучение иностранного языка

KIRISH

So'nggi yillarda yapon tilini chet tili sifatida o'rganishga bo'lgan qiziqish jahon miqyosida sezilarli darajada ortib bormoqda. Xususan, yapon tilini bilish darajasini aniqlovchi Japanese-Language Proficiency Test (JLPT) statistik ma'lumotlariga ko'ra,

2025 yil dekabr holatiga ko'ra dunyo bo'yicha 1049597 **nafar shaxs** ushbu imtihonga ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ularning 447285 Yaponiyada, 602312 nafari chet elda **imtihon uchun hujjat topshirgan** (Japanese-Language Proficiency Test [JLPT] 2025)¹. Ushbu ko'rsatkichlar yapon tilining global miqyosda keng o'rganilayotgan tillardan biriga aylanganini ko'rsatadi.

Tilni muvaffaqiyatli o'zlashtirish faqat grammatik qoidalarni bilish bilan cheklanmaydi, balki uning pragmatik va diskurs xususiyatlarini ham to'g'ri anglashni talab etadi. Yapon tili ana shunday pragmatik jihatdan murakkab tillardan biri bo'lib, unda gap tarkibida eganing tez-tez tushib qolishi (主語省略, shugo shouryaku) tabiiy va keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Yapon tili grammatik jihatdan *pro-drop* tillar qatoriga kiradi, ya'ni gapda ega ochiq ifodalanmasdan ham mazmunli va tushunarli bo'lishi mumkin. Biroq yapon tilini chet tili sifatida o'rganuvchilar ushbu xususiyatni o'zlashtirishda sezilarli qiyinchiliklarga duch keladilar. Ko'pchilik o'rganuvchilar o'z ona tilida ega majburiy bo'lgan sintaktik modellarga tayanib, yapon tilida ham egani har doim ochiq ifodalashga intiladilar. Natijada grammatik jihatdan to'g'ri, biroq nutqiy jihatdan sun'iy va tabiiy bo'lmagan gaplar yuzaga keladi. Masalan;

O'zbek tilida: Egani fe'l qo'shimchasi "sotib beradi" (masalan: *Keldingiz* – siz ekanligingiz aniq).

□ **Yapon tilida:** Yapon tilida fe'llar shaxs va songa qarab o'zgarmaydi. Masalan, *ikimasu* (boraman, borasan, boradi – hammasi bir xil). Shuning uchun yapon tilida eganing tushib qolishi (主語省略 – *shugo shōryaku*) faqatgina **kontekst va vaziyatga** tayanadi. Shu sababli o'rganuvchilar egasi tushib qolgan gaplarni kim haqida ekanligini tushunishda qiynalishadi.

Boshlang'ich bosqichdagi grammatikaga asoslangan ta'lim, xususan “*私は～です*” kabi modellarning ustunligi, o'rganuvchilarda egasiz gapni noto'g'ri deb qabul qilish holatini kuchaytiradi. Shuningdek, ona tili interferensiyasi va pragmatik bilim yetishmasligi eganing tushib qolishini to'g'ri qo'llashga to'sqinlik qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi yapon tilini chet tili sifatida o'rganuvchilarda eganing tushib qolishi hodisasini tahlil qilish va uning asosiy muammolarini aniqlashdan iborat.

NAZARIY ASOS

Yapon tilida ega sintaktik jihatdan majburiy birlik hisoblanmaydi. Gap subyekti ko'pincha oldingi nutq bo'lagi, mavzu (トピック), yoki suhbat ishtirokchilarining umumiy bilimlariga tayanadi (Shibatani, 1990). Bu holat yapon tilining diskursga yo'naltirilgan til ekanligini ko'rsatadi. Ona tili egasi majburiy bo'lgan tillarga mansub

¹ www.jlpt.jp

o'rganuvchilar uchun bu xususiyatni o'zlashtirish murakkab bo'lib, ular ko'pincha sintaktik to'liqlikni pragmatik moslikdan ustun qo'yadilar (Kuno, 1973).

Eganing tushib qolishi – yapon tilidagi gaplarda subyektning kontekstga bog'liq ravishda aniqlanishi – tilning pro-drop xususiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'rganuvchilar egani ortiqcha qo'llash orqali notabiiy nutq hosil qiladilar (Ikegami, 1991). Shu bois, yapon tilini o'rganuvchilarda egasiz gaplar bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirish muhimdir.

Yapon tili o'rganuvchilar nutqida eganing tushib qolishi hodisasi va uning pragmatik tahlili

1. Ona tili interferensiyasi

Kanaya Takehiro yapon tilini “**kontekstga tayanadigan til**”² deb ta'riflaydi. Muallifga ko'ra, g'arb tillarida shakllangan “har qanday gapda ega bo'lishi kerak” degan fikr yapon tiliga mos kelmaydi. Ona tili interferensiyasi natijasida o'rganuvchilar **subyektni keraksiz joyda qo'llaydilar**. O'rganuvchilar ko'pincha o'z ona tilidagi sintaktik strukturalarni yapon tiliga ko'chiradilar. Bu egani ortiqcha qo'llashga olib keladi.

Misol:

Xato misol (1):

私は昨日、私の友達と映画を見ました。

Vatashi va kino, vatashi no tomodachi to eiga vo mimashita.

Men kecha, mening do'stim bilan kino ko'rdim.

To'g'ri misol(2):

昨日、友達と映画を見ました。

Kino, tomodachi to eiga vo mimashita.

Kecha, do'stim bilan kino ko'rdim.

2. Boshlang'ich darajadagi yapon tili darsliklarida asosan **aniq egaga ega bo'lgan to'liq gaplar** beriladi. Masalan, 「私は～です」, 「あなたは～ですか」 kabi konstruksiyalar o'rganuvchilarga yapon tilidagi gap har doim ega bilan boshlanishi kerak degan noto'g'ri tasavvurni shakllantiradi. Natijada, o'rganuvchilar **egasiz gaplarni grammatik jihatdan noto'g'ri** yoki “to'liq emas” deb qabul qilishga moyil bo'lib qoladilar (Makino & Tsutsui, 1986).

² Kanaya, T. (2019). *Nihongo ga sekai o heiwa ni suru kore dake no riyū*. Tokyo: Shueisha

Darslikdagi sun'iy model

Boshlang'ich darsliklarda:

私は学生です。

vatashiva gakusei desu

(Men talabaman.)

Bu gap grammatik jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, kundalik muloqotda har doim ham ishlatilmaydi.

Tabiiy nutqdagi real holat

Kundalik suhbatda:

学生です。

gakusei desu

(Talabaman.)

Bu gapda ega (私) aytilmagan, ammo kontekst aniq bo'lgani uchun mutlaqo tabiiy hisoblanadi. Biroq grammatikaga qat'iy o'rgatilgan o'quvchi bunday gapni "noto'g'ri" deb baholashi mumkin.

3. Pragmatik

bilim

yetishmasligi

O'rganuvchilar grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzgan bo'lsalar ham, real nutq vaziyatiga mos kelmaydigan ifodalardan foydalanadilar. Pragmatik kontekstni tushunmaslik eganing tushib qolishini noto'g'ri qo'llashga olib keladi (Ide, 1982).

XULOSA

Yapon tilini o'rganuvchilarda eganing tushib qolishini o'zlashtirish grammatik bilimdan ko'ra pragmatik kompetensiyaga bog'liq. Ko'plab o'rganuvchilar egasiz gaplarni grammatik jihatdan "to'liq emas" deb qabul qiladilar, bu esa o'qitish jarayonida pragmatik tushuntirishlarning yetarli emasligi bilan izohlanadi. Shu sababli, ta'lim jarayonida real nutq namunalaridan keng foydalanish, kontekstga asoslangan mashqlar va ona tili bilan qiyosiy tahlil mashqlari zarur hisoblanadi. Boshlang'ich darajadagi grammatika markazli ta'lim va ona tilining interferensiyasi ham egasiz gaplarni noto'g'ri qabul qilishga olib keladi. Yapon tilida gap egasi kontekstga bog'liq ravishda aniqlanadi, shuning uchun real nutq materiallari, dialoglar va kontekstga asoslangan mashqlar o'rganuvchilarga egasiz gaplarni tabiiy qo'llashga yordam beradi. Ona tili bilan qiyosiy tahlil mashqlari esa xatolarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli, yapon tilini o'qitish metodikasida **pragmatik kompetensiyani rivojlantirishga e'tibor qaratish**, real nutq namunalaridan foydalanish va ona tilining ta'sirini kamaytirish muhimdir. Bu yondashuv o'rganuvchilarning yapon tilida tabiiy va samarali nutq shakllantirishni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ide, S. (1982). *Japanese sociolinguistics: Politeness and conversational styles*. Tokyo University Press.

2. Ikegami, Y. (1991). Subject omission and discourse context in Japanese. *Journal of Pragmatics*, 16(5), 451–475
3. Kuno, S. (1973). *The structure of the Japanese language*. MIT Press.
4. Makino, S., & Tsutsui, M. (1986). *A dictionary of basic Japanese grammar*. Tokyo: Japan Times.
5. Shibatani, M. (1990). *The languages of Japan*. Cambridge University Press.
6. Kanaya, T. (2019). *Nihongo ga sekai o heiwa ni suru kore dake no riyū*. Tokyo: Shueisha
7. www.jlpt.jp